

KAMOLIDDIN BEHZOD  
NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK  
VA DIZAYN INSTITUTI





# Institut tarixi



Institut tarixi 1945-yil Toshkent shahrida O'rta Osiyo davlat teatr san'ati instituti sifatida asos solinishidan boshlangan bo'lib, 1948-yildan rus dramaturgi A.N. Ostrovskiy (1823-86) nomi bilan atab kelingan. 1954-yildan institut huzurida rangtasvir yo'nalishi ta'limi yo'lga qo'yiladi. Shu bois mazkur oliygoh Teatr va rassomlik instituti deb qayta nomlangan. 1991-yil A.N.Ostrovskiy nomi o'rniga o'zbek teatri arbobi Mannon Uyg'ur nomi beriladi, shu davrdan Mannon Uyg'ur nomidagi San'at instituti sifatida qayd etila boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997-yil 23-yanvardagi O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish to'g'risidagi Farmoniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 131-son Qaroriga asosan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etiladi.



Talabalar — 2450

Nomli stipendiya sohiblari — 14



# Fakultetlar

Tasviriy san'at fakulteti

San'atshunoslik va amaliy san'at fakulteti

Dizayn fakulteti







## TASVIRIY SAN'AT FAKULTETI

1997-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etilishi bilan birga badiiy ta'limning asosiy negizi hisoblangan Tasviriy san'at fakulteti ham tashkil etildi. Mazkur fakultetda O'zbekiston tasviriy san'atiga tamal toshini qo'ygan, o'zidan keyin ko'plab shogirdlar yetishtirgan marhum ustozlar, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademiklari, O'zbekiston xalq rassomlari hamda ko'plab taniqli rassomlar talabalarga tasviriy san'at sirlaridan saboq berib kelganlar.

Fakultet tarkibida 6 ta kafedra faoliyat yuritadi. Jumladan: "Dastgohli rangtasvir", "Mahobatli rangtasvir", "Teatr bezagi rangtasviri", "Minityura va kitob grafikasi", "Haykaltaroshlik" va "Chizmatasvir" kafedralari.

Mazkur kafedralarda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 8 ta, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha esa 7 ta yo'nalishda mutaxassislar tayyorlanadi. Bitiruvchilar bakalavriat va magistratura bosqichlarini tamomlagach, respublikaning umumta'lim maktablari, tasviriy san'atga ixtisoslashgan kollejlari, teatrlar, kinostudiyalar, nashriyotlar, san'at galereyalari hamda muzeylarda faoliyat yuritadilar.

Hozirda fakultetda "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti sohiblari, "Mard o'g'lon" ko'krak nishoni sovrindorlari, nomdor stipendiyalar egalari, shuningdek, xalqaro olimpiadalar va nufuzli tanlovlar g'oliblari tahsil olmoqda.

## Dastgohli rangtasvir kafedresi

Bakalavriat:  
Dastgohli rangtasvir  
Magistratura:  
Dastgohli rangtasvir

## Mahobatli rangtasvir kafedresi

Bakalavriat:  
Mahobatli rangtasvir  
Magistratura:  
Mahobatli rangtasvir

## Teatr bezagi rangtasviri kafedresi

Bakalavriat:  
Teatr bezagi rangtasviri  
Filmning tasviriy yechimi  
Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi  
Magistratura:  
Kino va telefilmning tasviriy yechimi  
Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi

## Miniatyura va kitob grafikasi kafedresi

Bakalavriat:  
Dastgoh va kitob grafikasi  
Miniatyura va kitob grafikasi  
Magistratura:  
Dastgoh va kitob grafikasi  
Miniatyura va kitob grafikasi

## Haykaltaroshlik kafedresi

Bakalavriat:  
Haykaltaroshlik  
Magistratura:  
Haykaltaroshlik

## Chizmatasvir kafedresi



*Gilam to'quvchilar*  
*Rangtasvir. X. Gubayev.*

## DASTGOHLI RANGTASVIR KAFEDRASI

Kafedra o'qituvchilari milliy rassomlik maktabi hamda jahon tasviriy san'ati maktablari an'analari asosida rangtasvirchi rassomlarni tayyorlaydi. Kafedra o'qituvchilari boy ilmiy-ijodiy va amaliy pedagogik tajribani zamonaviy tasviriy san'at nazariyasi asoslari bilan uyg'unlashtirgan holda ixtisoslik fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqqanlar.

Hozirgi kunda kafedrada dastgohli rangtasvir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassislari tayyorlanadi.



*Mirzo Ulugbek.*  
*Rangtasvir*

Kafedra bitiruvchilari turli tashkilotlar va davlat muassasalarida rassom sifatida faoliyat yuritadilar, shuningdek ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati bilan shug'ullanadilar.

## MAHOBATLI RANGTASVIR KAFEDRASI

Mazkur kafedra Tasviriy san'at fakulteti tarkibidagi eng yetakchi kafedralardan biri hisoblanadi.

Kafedrada O.K. Tatevosyan (kafedra mudiri), R.A. Ahmedov va V.A. Riftin kabi rassomlar ilk pedagoglar sifatida faoliyat yuritganlar.

Kafedrada talabalarga vitraj, freska, mozaika kabi turli texnikalarda ishlay oladigan, arxitektura hamda mahobatli rangtasvirning o'zaro uyg'unligini ta'minlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash ishlari olib boriladi.

Hozirgi kunda kafedrada bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura ixtisosliklari bo'yicha "Mahobatli rangtasvir" yo'nalishida yetuk kadrlar tayyorlanadi.

Kafedra bitiruvchilari xususiy firmalarda vitraj, mozaika texnikalari hamda devoriy tasvirlar bo'yicha faoliyat yuritadilar, shuningdek ixtisoslashgan ijod maktablari va oliy ta'lim muassasalarida yosh rassomlarga saboq beradilar.





Ekzyuperining “Kichik shahzoda” asari..  
Filmning tasviriy yechimi. M. Sattarov.



Paulo Koelyoning “Alkimyogar” asari..  
Filmning tasviriy yechimi. M. Karimova.

## TEATR BEZAGI RANGTASVIRI KAFEDRASI

Jahondagi eng ommaviy va taʼsirchan sanʼat turlaridan biri boʻlgan teatr asrlar davomida insonlarni ezgulik va insonparvarlik ruhida tarbiyalab, ularning qalbida olijanob fazilatlar va goʻzal his-tuygʻularni kamol toptirishga xizmat qilib kelmoqda.

“Teatr bezagi rangtasviri” taʼlim yoʻnalishida dekoratsiya, liboslar, yorugʻlik va sahna texnikasi vositasida spektaklning tomosha obrazini yaratish sirlari oʻrgatiladi. Rassom illyuziya vositasida tomoshabinda turli taassurotlar uygʻotadi, tarixiy davr va muhitni haqqoniy aks ettirish orqali sahna asarining badiiy yaxlitligiga erishadi.

Teatr dekoratsiyasi sanʼati teatr, dramaturgiya va tasviriy sanʼat taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliq holda rivojlanib kelmoqda. Oʻzbekiston teatr sanʼati senografiyasi tarixida, xususan 1960–1990-yillarda rassom Georgiy Brim tomonidan ishlab chiqilgan sahnaviy yechimlar va eskizlar metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Filmning tasviriy yechimi” taʼlim yoʻnalishi talabalarga tasviriy sanʼat asoslarini oʻrgatish bilan birga, kinematografiyada vizual va badiiy elementlar bilan ishlash koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu yoʻnalishda talabalar chizmatasvir, kompozitsiya, ranglar uygʻunligi, shuningdek kino sanʼatining nazariy asoslari, vizual tili hamda tasviriy yechim usullarini oʻrganadilar. Soʻnggi yillarda kino sanoatining jadal rivojlanishi natijasida ushbu yoʻnalish bitiruvchilariga boʻlgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Kino rassomi murakkab kasblardan biri boʻlib, u yuqori darajadagi masʼuliyat, eʼtibor, qunt bilan birga keng tasavvur va ijodiy fantaziyani talab etadi. Filmning tomoshabin tomonidan oson idrok etilishi koʻp jihatdan rassomning mehnatiga bogʻliq. Rassom tomonidan yaratilgan rekvizitlar, dekoratsiya va kostyumlar filmning umumiy badiiy muhitini shakllantiradi.

Qoʻgʻirchoq teatri rassomi yoʻnalishida esa zamonaviy sanʼat tendensiyalari — yangi



L. Tolstoyning “Tirish” asari — teatr sahna bezagi.  
Teatr bezagi rangtasvir. i M. Irsalimov.



I. Changning “Uchar xanjarlar uyi” asari.  
Teatr bezagi rangtasvir. S. Xolmatova.

texnologiyalar, raqamli yechimlar hamda postmodernizmga xos simulyakr, metasan’at, dekonstruksiya va artefakt kabi tushunchalar asosida ijodiy izlanishlar olib boriladi. Qo’g’irchoq teatri bugungi kunda kattalar va bolalar auditoriyasiga mo’ljallangan o’ziga xos kommunikativ san’at turi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli qo’g’irchoq teatri rassomi nafaqat qahramonlarning tashqi qiyofasini asar mazmuniga mos holda yaratishi, balki zamonaviy texnologiyalarni sahna badiiy yechimiga uyg’unlashtira olish ko’nikmasiga ham ega bo’lishi zarur.

Mazkur yo’nalishda talabalarga ko’p yillik tajribaga ega bo’lgan yuqori malakali professor-o’qituvchilar, jumladan Alisher Navoiy nomidagi akademik katta teatr bosh rassomi Davron Rajabov saboq berib kelmoqda.



Krillovning “Masallari”.

Dastgoh va kitob grafikasi. X. Mirzaolimova.



Jaloliddin Manguberding qahramonligi.

Xattotlik va miniatyura. J. Burhonov.

## MINIATYURA VA KITOB GRAFIKASI KAFEDRASI

Tasviriy san’at fakulteti tarkibida 1961-yilda “Kitob grafikasi” bo’limi ochilgan. Institut Kengashi qaroriga ko’ra, 2005-yilda “Xattotlik va miniatyura” hamda “Kitob grafikasi” kafedralari birlashtirilib, “Miniatyura va kitob grafikasi” kafedrasini tashkil etilgan.

Mazkur kafedrada professor-o’qituvchilar miniatyura san’atining zamonaviy talqinlarini innovatsion uslublar asosida tasvirlash sirlarini iqtidorli talabalarga o’rgatib kelmoqdalar. Shuningdek, kafedra tomonidan illustratsiyalar, grafika va miniatyura asarlari, turli bosma mahsulotlar dizayni ishlab chiqiladi.

Kafedrada dastgohli va kitob grafikasi, xattotlik hamda miniatyura yo’nalishlari bo’yicha rassomlar tayyorlanadi. Kafedra o’qituvchilarining asosiy maqsadi — miniatyura milliy maktabining muhim jihatlari takomillashtirish, an’analarini tiklash va rivojlantirish, zamonaviy mavzularga murojaat qilish hamda kitob va plakat bezagida turli grafik vositalardan foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Kafedrada O’zbekiston va Yaponiya o’rtasidagi ta’lim, ilmiy va innovatsion hamkorlikni rivojlantirish maqsadida “The Research for the Culture of Contemporary Hand-made Paper and Artistic Expression” (Zamonaviy qo’lda tayyorlanadigan qog’ozning madaniy va badiiy ahamiyatini o’rganish: Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, O’zbekiston) nomli ilmiy-amaliy loyiha (grant) doirasida tadqiqot ishlari olib borilgan.

Hozirgi kunda kafedrada quyidagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha malakali mutaxassislar tayyorlanadi: bakalavriat bosqichida — Grafika (dastgoh va kitob grafikasi), Grafika (xattotlik va miniatyura); magistratura bosqichida esa — Grafika (dastgoh va kitob grafikasi), Grafika (xattotlik va miniatyura).

Kafedraning aksariyat bitiruvchilari respublika va xalqaro plakatlar hamda kitob bezagi tanlovlarining sovrindorlaridir. Shuningdek, ular turli nashriyotlar, ijod maktablari va muzeylarda samarali faoliyat yuritib kelmoqdalar.

## HAYKALTAROSHLIK KAFEDRASI

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, yuqori intellektual salohiyatga ega, raqobatbardosh va zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasining ruxsati asosida hamda institut Ilmiy kengashining 2003-yil 30-maydagi qaroriga muvofiq, "Haykaltaroshlik" yo'nalishi "Mahobatli rangtasvir" kafedrasidan ajratilib, alohida kafedra sifatida tashkil etilgan.

Haykaltaroshlik kafedrasida bakalavriat bosqichida 2 ta ta'lim yo'nalishi — Haykaltaroshlik (mahobatli), Haykaltaroshlik (mayda plastika), magistratura bosqichida esa 1 ta — Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha) mutaxassisligi mavjud.

Kafedra o'qituvchilarining badiiy asarlari nafaqat respublikamiz maydonlarini, balki dunyoning ko'plab shaharlarini ham bezab turibdi.

Kafedra bitiruvchilari badiiy ta'limga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati bilan shug'ullanadilar hamda mustaqil ijodiy faoliyat olib boradilar.



Kosmos.  
Haykal. T. Qorayev.



## SAN'ATSHUNOSLIK VA AMALIY SAN'AT FAKULTETI

San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 23-yanvardagi "O'zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida "Tasviriy san'at tarixi va nazariyasi" kafedrasini negizida tashkil etilgan.

2021-yil 27-avgustdan e'tiboran fakultet "San'atshunoslik va muzeyshunoslik" fakulteti deb nomlana boshlandi. Fakultet san'atshunoslik va muzeyshunoslik yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan.

2025-yil sentabr oyidan boshlab San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti Amaliy san'at fakulteti bilan birlashtirilib, "San'atshunoslik va amaliy san'at" fakulteti sifatida faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi kunda mazkur fakultet bakalavriat bosqichida 11 ta ta'lim yo'nalishi hamda 5 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi.

Hozirgi kunda fakultet tarkibida 6 ta kafedra mavjud bo'lib, ularning 5 tasi mutaxassis tayyorlovchi kafedralar hisoblanadi.

## AMALIY BEZAK SAN'ATI KAFEDRASI

Bakalavriat:  
Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash  
Badiiy zargarlik  
Badiiy naqqoshlik  
Magistratura:  
San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash

## BADIIY KULOLCHILIK VA TA'MIRLASH KAFEDRASI

Bakalavriat:  
Badiiy kulolchilik  
Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash  
Magistratura:  
Badiiy kulolchilik

## MUZEYSHUNOVLIK KAFEDRASI

Bakalavriat:  
Muzey predmetlari ekspertizasi, konservatsiya va ta'mirlash  
Muzey menejmenti va madaniy turizm  
Magistratura:  
Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash

## SAN'AT TARIXI VA NAZARIYASI KAFEDRASI

Bakalavriat:  
San'atshunoslik (tasviriy va amaliy san'at)  
San'atshunoslik (san'at jurnalistikasi)  
Magistratura:  
San'atshunoslik (tasviriy va amaliy san'at)

## IJTIMOY FANLAR VA INFORMATIKA KAFEDRASI

Bakalavriat:  
Marketing  
Menejment  
Magistratura:  
Menejment

## O'ZBEK VA XORIJIY TILLAR KAFEDRASI



## AMALIY BEZAK SAN'ATI KAFEDRASI

“Amaliy bezak san’ati” kafedrasida 2023-yil fevral oyidan boshlab Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tarkibidagi “Badiiy kulolchilik va me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlesh” kafedrasidan ajratilib, alohida kafedra sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi kunda kafedrada quyidagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha malakali mutaxassislar tayyorlanadi: bakalavriat bosqichida — Amaliy san’at asarlarini ta’mirlesh, Badiiy zargarlik, Badiiy naqqoshlik; magistratura

bosqichida esa — San’at asarlari va me’moriy yodgorliklarni ta’mirlesh mutaxassisligi.

Kafedra professor-o’qituvchilari va talabalari xalqaro hamda respublika miqyosida o’tkazilayotgan festival, anjuman va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etib, diplom va sertifikatlar bilan taqdirlanib kelmoqdalar. O’quv-uslubiy hamda ilmiy-ijodiy faoliyatda ham kafedra jamoasi salmoqli yutuqlarga erishmoqda.

Kafedra bitiruvchilari ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritadilar.

## BADIIY KULOLCHILIK VA TA'MIRLASH KAFEDRASI

“Badiiy kulolchilik” kafedrasida 1997-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu mutaxassislik bugungi kunda “Badiiy kulolchilik” nomi bilan mashhur bo‘lib, respublikamizda noyob sohalardan biri sifatida qadimgi, o‘rta asrlar va zamonaviy kulolchilik an‘analari asosida mutaxassislar tayyorlaydigan yagona markaz vazifasini bajarib kelmoqda.

“Badiiy kulolchilik” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv, ilmiy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda respublikamiz kulolchilik sohasida katta tajribaga ega, butun umrini mazkur sohaga bag‘ishlagan mutaxassislar jalb etilgan.

Mazkur kafedra o‘qituvchilari bo‘lajak kulollarni tayyorlash jarayonida asosiy e‘tiborni nafaqat boy milliy an‘analarni saqlashga, balki ushbu san‘at turining zamonaviy yutuqlarini o‘zlashtirishga ham qaratadilar. Kafedra o‘qituvchilari tomonidan milliy kulolchilik maktabiga asoslangan yorqin, betakror va o‘ziga xos uslub shakllantirilgan.

Kafedra bitiruvchilari respublika kulolchilik kombinatlarida, ijod maktablarida hamda mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadilar.





## MUZEYSHUNOVLIK KAFEDRASI

Muzeyshunoslik ta'lim yo'nalishi o'z faoliyatini 1997-yildan boshlagan bo'lib, 2001-yildan alohida kafedra sifatida faoliyat yurita boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev huzurida 2017-yil 25-dekabr kuni Madaniyat vazirligi va Badiiy akademiya rahbarlarining hisobotlarini muhokama qilish yuzasidan o'tkazilgan majlis bayoni qarorining 7-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, 2018-yilda "Muzeyshunoslik" kafedra negizida quyidagi ta'lim yo'nalishlari ochildi: Muzeyshunoslik (muzey predmetlari ekspertizasi, konservatsiyasi va ta'mirlash) hamda Muzeyshunoslik (muzey menejmenti va madaniy turizm).

Hozirgi kunda kafedrada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlanadi: bakalvriat bosqichida — Muzeyshunoslik (muzey predmetlari ekspertizasi, konservatsiyasi va ta'mirlash), Muzeyshunoslik (muzey menejmenti

va madaniy turizm); magistratura bosqichida esa — Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash.

Mazkur yo'nalishlarni tamomlagan bitiruvchilar respublikamizdagi turli ixtisoslashgan muzeylarda kichik ilmiy xodimdan boshlab rahbarlik lavozimlarigacha, shuningdek Madaniy meros agentligi va uning hududiy boshqarmalarida, madaniyat markazlarida samarali faoliyat yuritib kelmoqdalar.

Kafedraning asosiy maqsadi — muzeylar faoliyatida madaniy merosni saqlash bilan bir qatorda zamonaviy san'at namunalarini to'plash va kelajak avlodga yetkazish vazifalarini samarali amalga oshira oladigan, chuqur nazariy bilimga ega hamda ularni amaliyotda qo'llay oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.



## SAN'AT TARIXI VA NAZARIYASI KAFEDRASI

“San’at tarixi va nazariyasi” kafedrasini 1964–1965-o’quv yilida sobiq Teatr va rassomlik instituti qoshida tashkil etilgan. Kafedraga mashhur olim, san’atshunoslik fanlari doktori, professor L. Rempel rahbarlik qilgan.

Dastlabki yillarda akademik G.A. Pugachenkova, E.V. Rtveladze, R.X. Toqtoq, N. Oyidinov, N. Abdullayev kabi respublikamizning yetuk san’atshunoslari talabalarga “San’at tarixi va nazariyasi” fanidan saboq berganlar.

Hozirgi kunda kafedrada San’atshunoslik (tasviriy va amaliy san’at) yo’nalishi bo’yicha bakalavriat va magistratura bosqichlarida oliy ma’lumotli san’atshunos-tanqidchilar hamda san’atshunos-jurnalistlar tayyorlanadi.

Kafedraning asosiy maqsadi — san’atshunoslik sohasida chuqur bilimga ega bo’lgan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat bo’lib, bunda O’zbekiston va jahon san’atshunosligi tajribasini o’zlashtirish, tasviriy va amaliy san’at tarixi, nazariyasi hamda metodikasini mukammal o’rganish, badiiy qadriyatlarni konservatsiya qilish va saqlash, shuningdek tasviriy asarlarning kelib chiqishi va ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilish asosiy yo’nalishlar sifatida belgilanadi.

Kafedra bitiruvchilari turli muzey va galereyalarda, ilmiy hamda ko’rgazma faoliyatini tashkil etish sohasida ishlaydilar, shuningdek litseylar va ijod maktablarida pedagoglik faoliyatini olib boradilar.



## O'ZBEK VA XORIJIY TILLAR KAFEDRASI

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida "Tillar va adabiyot" kafedrasini 1999-yil avgust oyida San'atshunoslik fakulteti tarkibida tashkil etilgan.

Institut Kengashining 2019-yil 30-avgustda o'tkazilgan 1-sonli majlisida ushbu kafedrada o'tiladigan fanlar institutdagi barcha fakultet talabalari uchun o'qitilishi belgilangan.

Institut Kengashining 2020-yil 29-avgustdagi 1-sonli majlisi qaroriga

muvofiq, kafedra nomi "O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasini deb o'zgartirilgan.

"O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasining asosiy maqsadi — talabalarning ijodiy va g'oyaviy-ma'naviy saviyasini shakllantirish, xorijiy, rus va o'zbek tillarida og'zaki hamda yozma nutq ko'nikmalarini, imlo savodxonligini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, ularni jahon va o'zbek adabiyotining eng sara namunalaridan xabardor qilish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## IJTIMOY FANLAR VA INFORMATIKA KAFEDRASI

"Informatika va menejment" kafedrasini 2003-yilda tashkil etilgan.

Institut Kengashining 2024-yil 13-avgustdagi qaroriga muvofiq, "Informatika va menejment" hamda "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedralari birlashtirilib, "Ijtimoiy fanlar va informatika" kafedrasini sifatida qayta tashkil etilgan.

Kafedra art menejment yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan o'quv, tarbiyaviy, pedagogik, tashkiliy-metodik, ilmiy-tadqiqot hamda axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshiradi. Kafedrada Menejment va Marketing bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

Bundan tashqari, kafedra institutning barcha tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlikda bakalavriat yo'nalishlari uchun falsafa, O'zbekistonning eng yangi tarixi, dinshunoslik, pedagogika, psixologiya, san'at va dizayn sohalarida axborot texnologiyalari, art marketing hamda san'at menejmenti kabi fanlarni o'qitishni ta'minlaydi.

Kafedraning asosiy maqsadi — mehnat bozorida raqobatbardosh, professional, korporativ va jamoat muhitida samarali faoliyat yurita oladigan, ijtimoiy faollik va yetakchilik fazilatlariga ega malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu bilan birga, talabalarda ijodiy-ilmiy salohiyat, ma'naviy barkamollik, iqtisodiy tafakkur va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarni shakllantirish hamda ekologik ongini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

# O'ZBEKISTONNI KASHF ETISH: AMALIYOT VA SAYOHATLAR





## DIZAYN FAKULTETI

1997-yilda Amaliy san'at fakulteti qoshida Dizayn kafedrasida tashkil etilgan. 2001-yildan boshlab "Libos dizayni" kafedrasida konstruktorlik bo'limidan ajralib chiqdi. Respublikamizda dizayn sohasi bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurati hamda ushbu yo'nalishga bo'lgan talabni inobatga olgan holda, 2003-yilda Dizayn fakulteti tashkil etildi.

"Amaliy grafika va badiiy fotografiya" kafedrasida esa Amaliy san'at fakultetidan ajralib chiqib, 2019-yilda Dizayn fakulteti tarkibiga qo'shildi.

Dizayn fakultetida bir qator yetuk mutaxassislar pedagogik faoliyat olib borganlar. Jumladan, "Dizayn" kafedrasida

arxitektura fanlari nomzodlari, professorlar Q. Muhammedjanov, R. Asamov, shuningdek M. Maxmudova, R. Zohidov, B. Inog'omov va M. Razikberdiyev; "Libos dizayni" kafedrasida V. Chursina, A. Allabergenova, U. Xadjayeva, N. Allaberganova va Z. Devletshayeva; "Amaliy grafika" kafedrasida esa D. Nikolaevich, R. Ayupov, P. Xaitov kabi professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatganlar.

Hozirgi kunda fakultet tarkibida 3 ta kafedra mavjud bo'lib, ularning barchasi mutaxassis tayyorlovchi kafedralar hisoblanadi. Fakultetda 5 ta bakalavriat yo'nalishi va 4 ta magistratura mutaxassisligi mavjud.

# KAFEDRALAR

## LIBOS DIZAYNI KAFEDRASI

Bakalavriat:

Libos va gazlamalar

Magistratura:

Libos va gazlamalar

## DIZAYN KAFEDRASI

Bakalavriat:

Interyer dizayni

Sanoat dizayni

Master's Degree:

Interyer dizayni

## AMALIY GRAFIKA VA BADIY FOTOGRAFIYA

Bakalavriat:

Reklama va amaliy grafika

Kompyuter grafikasi va badiiy fotografiya

Magistratura:

Amaliy grafika

Kompyuter grafikasi va badiiy surat



## LIBOS DIZAYNI KAFEDRASI

“Libos dizayni” ta’lim yo’nalishi o’z faoliyatini 2001-yildan boshlagan. Hozirgi kunda kafedrada “Dizayn (libos va gazlamalar)” ta’lim yo’nalishi bo’yicha malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda.

Respublikamizda dizayn sohasi bo’yicha yuqori malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyoj ortib borayotganligi sababli, 1999–2001-yillar davomida Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori lavozimida faoliyat olib borgan O’zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, professor N. Oydinov tashabbusi bilan “Amaliy san’at” fakulteti tarkibida “Dizayn” kafedrasini tashkil etilgan.

2005–2025-yillar davomida kafedra talabalari va bitiruvchilari respublika miqyosidagi

moda haftaliklarida faol ishtirok etib, bir qator nufuzli sovrinlarga sazovor bo’ldilar.

Kafedraning asosiy maqsadi — oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalarida “Libos dizayni” sohasi doirasida samarali pedagogik faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni tayyorlash, respublika hamda xorijiy mamlakatlardagi tekstil korxonalarini uchun malakali dizaynerlar avlodini shakllantirish, shuningdek, o’z shaxsiy moda brendlari va moda akademiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantira oladigan professional kadrlarni yetishtirishdan iborat.

Kafedra bitiruvchilari tikuvchilik korxonalarini, dizayn studiyalarini hamda boshqa ijodiy tashkilotlarda faoliyat yuritish bilan birga, xususiy tadbirkorlik bilan shug’ullanadilar va turli ijodiy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradilar.





## DIZAYN KAFEDRASI

1976-yilda A.N. Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik instituti "Monumental-dekorativ rangtasvir" kafedrasida "Interer va jihoz" bo'limi tashkil etildi. 1983-yilda mazkur kafedra tarkibida "Arxitektura dekorlarini ta'mirlash" bo'limi ochilishi munosabati bilan "Arxitektura dekorlarini ta'mirlash va interyerni loyihalash" kafedrasida tashkil etildi.

1997-yilda M. Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti tarkibidan rassomlik va dizayn yo'nalishlari ajratilib, O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etildi. Shu jarayonda mavjud kafedralar "Dizayn" hamda "Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash" kafedralariga ajratildi.

Kafedraning asosiy maqsadi — zamonaviy dizayn yo'nalishlarida, xususan interyer, sanoat va muhit dizayni sohalarida raqobatbardosh, ijodkor hamda amaliy

ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro standartlar va milliy me'moriy san'at an'analarini uyg'unlashtirgan holda ta'lim va ijodiy faoliyatni yo'lga qo'yish, jamiyat ehtiyojlariga mos dizaynerlik yechimlarini ishlab chiqish orqali innovatsion rivojlanishga hissa qo'shish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Talabalarining o'quv va bitiruv malakaviy ishlarida turli ijtimoiy va xo'jalik obyektlari, jumladan kinoteatrlar, bolalar bog'chalari va maydonchalari, maktablar, litseylar, turar joy binolari, idoralar va boshqa muassasalar intererlarini loyihalash hamda tahlil qilish masalalari o'rganiladi.

Kafedra bitiruvchilari loyihalash tashkilotlari, dizayn studiyalari hamda boshqa ijodiy muassasalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish bilan birga, badiiy ta'limga ixtisoslashgan maktablarda pedagogik faoliyat olib boradilar.



## AMALIY GRAFIKA VA BADIY FOTOGRAFIYA KAFEDRASI

“Amaliy grafika va badiiy fotografiya” kafedrası dastlab “Amaliy grafika” kafedrası nomi bilan faoliyat boshlagan. Mazkur mutaxassislik bugungi kunda “Amaliy grafika va badiiy fotografiya” nomi bilan tanilib, respublikamizda reklama dizayni va badiiy fotografiya yo’nalishlari bo’yicha mutaxassislar tayyorlaydigan noyob va yetakchi markazlardan biri hisoblanadi.

Kafedrada badiiy dizayn loyihalari, reklama mahsulotlari, bosma nashrlarning badiiy bezagi, logotiplar hamda boshqa vizual kommunikatsiya vositalarini yaratishga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlanadi. Shuningdek, talabalarda individual ijodiy

uslubni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

2006-yildan boshlab kafedrada “Kompyuter grafikasi va badiiy fotografiya” yo’nalishi bo’yicha ham kadrlar tayyorlash yo’lga qo’yilgan bo’lib, bu esa raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy dizayn va fotografiya sohasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Kafedra bitiruvchilari davlat va xususiy tashkilotlarda, xususan reklama va dizayn studiyalari, nashriyotlar hamda yengil sanoat mahsulotlarini qadoqlash va loyihalash bilan shug’ullanuvchi korxonalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqdalar.

# INSTITUTNING XALQARO ALOQALARI

Hozirgi kunda institutimiz dunyoning 35 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ushbu hamkorlar qatoriga Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Singapur, Rossiya, Turkiya, Ruminiya, Belarus va Qozog'iston kabi davlatlarning tashkilotlari, muzeylari va ta'lim muassasalari kiradi.

Hamkor oliy ta'lim muassasalari, tashkilotlar va muzeylar bilan olib borilayotgan hamkorlik doirasida ushbu nufuzli muassasalarning professor-o'qituvchilari institutimizga tashrif buyurib, mahorat darslari o'tkazadilar.

Shu bilan birga, mazkur hamkorliklar doirasida institutimiz professor-o'qituvchilari xorijiy davlatlarga borib, mahorat darslari o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil etish hamda o'z kasbiy mahoratini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Institutimiz ko'p yillardan buyon Erasmus+ dasturining Key Action yo'nalishida faol ishtirok etib kelmoqda. Hozirgi vaqtda ushbu dastur doirasida Ispaniya, Ruminiya va Italiya bilan akademik xodimlar hamda talabalar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Hamkorlik memorandumlari asosida professor-o'qituvchilar va talabalarimiz Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya, Turkiya, Malayziya, Singapur, Ozarbayjon va Qozog'iston Respublikasida malaka oshirish, qisqa muddatli almashinuv dasturlarida


ishtirok etish hamda ko'rgazmalar tashkil etish imkoniyatiga ega.

Har yili institutimiz xalqaro hamkorlar ishtirokida san'at ta'limiga bag'ishlangan konferensiyalarni tashkil etadi. Shuningdek, institut mutaxassislari muntazam ravishda xorijda o'tkaziladigan tasviriy san'at va dizayn sohalariga oid xalqaro forumlarda faol qatnashib kelmoqda.


Yana bir rivojlanayotgan hamkorlik yo'nalishlaridan biri Turkiyaning TIKA tashkiloti bilan hamkorlikdir. Bunday xalqaro loyihalar institutning xalqaro nufuzini oshirish hamda professor-o'qituvchilarning kasbiy malaka va kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.


Shu bilan birga, so'nggi yillarda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tasviriy san'at va dizayn yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan xorijiy talabalar orasida Xitoy Xalq Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston fuqarolari ham mavjud.


Kelgusida xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini yanada kengaytirish va mavjud aloqalarni rivojlantirish maqsadida yangi xorijiy oliy ta'lim muassasalari, tashkilotlar va muzeylar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, qo'shma va mustaqil loyihalarni ko'paytirish rejalashtirilgan. Bu borada bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda.





 <https://mrdi.uz>

 +998 71 255 18 92

 Toshkent, Mirobod district, Mironshox street, 123. Index: 100084